Philology Matters / ISSN: 1994 – 4233
Uzbekistan State World Languages University

2026 Vol. 56 No. 3
THEORY AND PRACTICE OF TRANSLATION
https://philmatt.uzswlu.uz

Received: August 6, 2026
Accepted: September 22, 2026
Available online: September 25, 2026

https://doi.org/10.36078/987655602

Original research article / Original tadqiqot maqolasi

CRITERIA FOR THE FUNCTIONAL JUSTIFICATION OF TRANSLATION DECISIONS: A COMPARATIVE ANALYSIS OF LITERARY TEXT TRANSLATIONS

Umed MAKSUDOV

Associate Professor, Doctor of Sciences (DSc) in Philology
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
ORCID iD: 0000-0003-2664-3058
Email: olimi.umed@mail.ru

ABSTRACT

The aim of the study is to develop a model for functionally justifying decisions in literary translation, evaluate its analytical potential, and substantiate its pedagogical application. The research material comprises two historical-cultural excerpts from the author's monograph and six cases selected from published English translations of works by Cholpon and A.Qodiriy, totalling eight examples. The study employed comparative, contextual-functional, componential, pragmatic, and stylistic analysis, as well as methodological modelling. For each case, the referential, pragmatic, stylistic, cultural, and textual functions of the source-text unit were identified; the strengths and losses of the published translation were assessed; at least two alternatives were developed; and the final choice was justified in relation to the translation purpose and intended readership.

The findings indicate that no single solution can preserve all functions equally when translating historical names, culture-specific realia, figurative parallelism, synecdoche, ritual terms, and gestures. Retaining cultural terms may reduce comprehensibility, while generalisation can improve fluency but weaken imagery and historical distance. Explicitation may enhance referential precision while altering pragmatic intensity. Accordingly, a seven-step model was proposed, integrating contextual reconstruction, functional prioritisation, alternative generation, comparison of translation gains and losses, evidence-based decision-making, and textual verification.

The study concludes that translation quality and the justification of translation decisions are interrelated but distinct indicators. Their separate assessment enables more precise evaluation of students' strategic and reflective competence. The model also recommends assessing translations and written commentaries as distinct yet interconnected outcomes, treating digital-tool suggestions as hypotheses requiring verification, and conducting empirical testing with experimental and control groups. It aims to integrate decision-making, self-monitoring, and revision into a unified framework for translation education. Its limitations include the small corpus and the absence of classroom-based validation.

Key words: translation decision, functional justification, strategic competence, reflective competence, cultural unit, imagery, textual coherence, translation quality, alternative solution, methodological modelling.

For citation:

Maksudov, U. (2026). Criteria for the functional justification of translation decisions: A comparative analysis of literary text translations. *Philology Matters*, *56*(3), 141–160. https://doi.org/10.36078/987655602.

© Umed Maksudov, 2026. Licensed under the Creative Commons Attribution 4.0 International License (CC BY 4.0).

TARJIMA QARORLARINI FUNKSIONAL JIHATDAN ASOSLASH MEZONLARI: BADIIY MATNLAR TARJIMASINING QIYOSIY TAHLILI

Umed MAKSUDOV

Filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O‘zbekiston

ANNOTATSIYA

Tadqiqotning maqsadi badiiy matn tarjimasida qabul qilinadigan qarorlarni funksional asoslash modelini ishlab chiqish, uning analitik imkoniyatlarini sinash va pedagogik qo‘llash mexanizmini asoslashdan iborat. Tadqiqot materiali sifatida muallif monografiyasidan olingan ikki tarixiy-madaniy parcha hamda Cho‘lpon va A.Qodiriy asarlarining nashr etilgan inglizcha tarjimalaridan tanlangan olti holat – jami sakkizta misol olindi. Tadqiqotda qiyosiy, kontekstual-funksional, komponent, pragmatik va uslubiy tahlil usullari hamda metodik modellashtirishdan foydalanildi. Har bir holatda asliyat birligining referensial, pragmatik, uslubiy, madaniy va matniy funksiyalari aniqlandi, nashr etilgan tarjimaning yutuq va yo‘qotishlari baholandi, kamida ikkita muqobil tarjima varianti ishlab chiqildi hamda tanlangan yechim tarjima maqsadi va mo‘ljallangan o‘quvchi ehtiyojlari nuqtayi nazaridan asoslandi.

Natijalar tarixiy nomlar, milliy-maishiy realiyalar, obrazli parallelizm, sinekdoxa, marosim nomlari va imo-ishoralarni tarjima qilishda yagona variant barcha funksiyalarni birdek saqlay olmasligini ko‘rsatdi. Madaniy nomlarni saqlash matnning tushunarliligini pasaytirishi, umumlashtirish ravonlikni oshirish bilan birga obrazlilik va tarixiy masofani susaytirishi, eksplitsitatsiya esa referensial aniqlikni kuchaytirish barobarida pragmatik ta’sirni o‘zgartirishi mumkin. Ushbu kuzatishlar asosida kontekstni tiklash, funksiyalarni ustuvorlashtirish, muqobil variantlarni ishlab chiqish, yutuq va yo‘qotishlarni qiyoslash, tanlovni dalillar bilan asoslash hamda matniy muvofiqlikni tekshirishni qamrab oluvchi yetti bosqichli model taklif etildi.

Xulosa qilib aytganda, tarjima sifati va tarjima qarorining asoslanganlik darajasi o‘zaro bog‘liq, biroq mustaqil baholash mezonlaridir. Ularni alohida baholash talabalarning strategik va refleksiv kompetensiyalarini aniqroq aniqlash imkonini beradi. Model tarjima mahsuloti va yozma sharhni alohida, ammo o‘zaro bog‘liq natijalar sifatida baholashni, raqamli vositalar takliflarini tekshirilishi lozim bo‘lgan gipotezalar sifatida ko‘rib chiqishni hamda keyingi bosqichda nazorat va tajriba guruhlari ishtirokida empirik sinov o‘tkazishni nazarda tutadi. Shu jihatdan model tarjima ta’limida qaror qabul qilish, o‘zini o‘zi nazorat qilish va tahrirlash jarayonlarini yagona metodik tizimga birlashtirishga xizmat qiladi. Tadqiqotning asosiy cheklovlari korpus hajmining kichikligi va modelning real o‘quv auditoriyasida hali empirik sinovdan o‘tkazilmaganligi bilan belgilanadi.

Kalit so‘zlar: tarjima qarori, funksional asoslash, strategik kompetensiya, refleksiv kompetensiya, madaniy birlik, obrazlilik, matniy izchillik, tarjima sifati, muqobil variant, metodik modellashtirish.

КРИТЕРИИ ФУНКЦИОНАЛЬНОГО ОБОСНОВАНИЯ ПЕРЕВОДЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПЕРЕВОДОВ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТОВ

Умед МАКСУДОВ

Доктор филологических наук (DSc), доцент
Узбекский государственный университет мировых языков
Ташкент, Узбекистан

АННОТАЦИЯ

Цель исследования заключается в разработке модели функционального обоснования решений, принимаемых при художественном переводе, оценке её аналитического потенциала

и обосновании механизмов её педагогического применения. Материал исследования включает два историко-культурных фрагмента из монографии автора и шесть случаев, отобранных из опубликованных английских переводов произведений Чулпана и А. Кадыри, – всего восемь примеров. В исследовании применялись сравнительный, контекстуально-функциональный, компонентный, прагматический и стилистический анализ, а также методическое моделирование. Для каждого случая определялись референциальная, прагматическая, стилистическая, культурная и текстовая функции единицы исходного текста; оценивались достоинства и потери опубликованного перевода; разрабатывались как минимум два альтернативных варианта; окончательный выбор обосновывался с учётом цели перевода и предполагаемой целевой аудитории.

Результаты исследования показывают, что при переводе исторических имён, культурно-специфических реалий, образного параллелизма, синекдохи, названий обрядов и жестов ни одно решение не позволяет в равной степени сохранить все функции исходной единицы. Сохранение культурно-специфических обозначений может снижать понятность текста, тогда как генерализация способствует повышению беглости изложения, но ослабляет образность и ощущение исторической дистанции. Экспликация повышает референциальную точность, однако может изменять прагматическую интенсивность высказывания. В связи с этим предложена семиэтапная модель, объединяющая реконструкцию контекста, определение функциональных приоритетов, разработку альтернативных вариантов, сопоставление переводческих приобретений и потерь, аргументированный выбор и текстовую верификацию.

Сделан вывод о том, что качество перевода и степень обоснованности переводческих решений являются взаимосвязанными, но различными показателями. Их раздельная оценка позволяет более точно определять уровень стратегической и рефлексивной компетенций студентов. Модель также предусматривает оценивание перевода и письменного комментария как самостоятельных, но взаимосвязанных результатов, рассмотрение рекомендаций цифровых инструментов в качестве гипотез, требующих проверки, и проведение эмпирического исследования с участием экспериментальной и контрольной групп. Модель направлена на интеграцию принятия решений, самоконтроля и редактирования в единую методическую систему обучения переводу. Ограничения исследования обусловлены небольшим объёмом корпуса и отсутствием апробации модели в реальных условиях учебного процесса.

Ключевые слова: переводческое решение, функциональное обоснование, стратегическая компетенция, рефлексивная компетенция, культурная единица, образность, текстовая связность, качество перевода, альтернативный вариант, методическое моделирование.

KIRISH

Tarjima ta’limida matn ko‘pincha lug‘aviy muvofiqlik, grammatik to‘g‘rilik va xatolar soni asosida baholanadi. Bu mezonlar zarur, biroq badiiy matndagi bir birlik bir nechta maqbul yo‘l bilan tarjima qilinishi mumkin. Variantlar muallif ovozi, madaniy muhit, obrazlilik, pragmatik ta’sir va matn ravonligini turlicha qayta ifodalaydi. Shuning uchun talaba nafaqat tarjima yaratishi, balki tanlovini matn va kontekst dalillari bilan asoslay olishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’lim sifatini oshirish va xorijiy tillarni o‘qitish tizimini takomillashtirishni mamlakat taraqqiyotining ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilagan [Mirziyoyev, 2021]. Bu vazifa tarjimonlar tayyorlashda bilimni amaliy qaror qabul qilish, tahliliy fikrlash va mas’uliyatli tahrir ko‘nikmalari bilan uyg‘unlashtirish zaruratini kuchaytiradi.

Maqolaning maqsadi badiiy tarjima qarorlarini funksional jihatdan asoslash modelini ishlab chiqish va uni muallifning avvalgi maqolalarida tahlil qilinmagan sakkizta misolda tekshirishdan iborat. Gipotezaga ko‘ra, variantning maqbulligi

shakliy yaqinlik bilangina emas, yetakchi funksiyani saqlash, ikkilamchi tafovutlarni boshqarish, zarur o‘rinda kompensatsiya qo‘llash va butun matn strategiyasiga moslik bilan belgilanadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi tarjima sifati bilan qarorning asoslanganlik darajasini o‘zaro bog‘liq, ammo aynan bir xil bo‘lmagan mezonlar sifatida ajratishdadir. Model yagona “to‘g‘ri” muqobilni izlash o‘rniga bir nechta real variantning yutuq, yo‘qotish va xatarlarini umumiy funksional mezonlar asosida qiyoslaydi.

Kognitiv tarjimashunoslik tarjimani tayyor muqobillarni mexanik almashtirish bilan cheklamaydi. Tarjimon matnni talqin qiladi, variantlarni ko‘rib chiqadi, maqsadni belgilaydi, ularning oqibatlarini baholaydi va natijani qayta tekshiradi [Muñoz Martín & Olalla-Soler, 2022]. Demak, pedagogik topshiriq yakuniy mahsulot bilan birga qarorning shakllanish va tekshirilish jarayonini ham ochib berishi lozim.

Yozma tarjima sharhi, metakognitiv savolnomalar va loyiha asosidagi mashg‘ulotlar talabaning strategik kompetensiyasini rivojlantiradi. Yozma sharh qiyinchiliklarni aniq nomlash va fikrlash jarayonini nazorat qilishga yordam beradi [Costa & Lourenço da Silva, 2023]; metakognitiv savolnomalar e’tiborni alohida so‘zlardan tarjima matnining umumiy sifatiga yo‘naltiradi [Altuwairesh, 2024]. Loyiha asosidagi ta’limda esa yakuniy qarorni asoslash alohida metodik ko‘makni talab qiladi [Xiao & Zeng, 2023].

Tarjima qarori va refleksiv kompetensiya

Tarjima qarori muayyan kontekstda mavjud bir nechta maqbul variant orasidan funksional ustuvorlikka muvofiq tanlov qilishdir. Bunda qaysi ma’no qatlamini markazga chiqarish, qaysi madaniy belgini saqlash, nimani ochiq ifodalash va asliyatga xos madaniy masofani qay darajada qoldirish masalalari hal etiladi. J.Levi oldingi tanlov keyingi imkoniyatlarni cheklashini ta’kidlaydi [Levý, 1967]; bir funksiyaning kuchayishi esa boshqasining qisman zaiflashishi bilan kechishi mumkin [Pym & Hu, 2025].

“Bu variant yaxshiroq eshitiladi” degan izoh ilmiy-kasbiy dalil emas. Asoslangan sharh tanlangan variantni, saqlangan yetakchi funksiyani, o‘zgargan yoki yo‘qolgan unsurni va qarorni tasdiqlovchi matniy yoxud manbaviy dalilni ko‘rsatishi lozim.

Maqsadni belgilash, o‘z faoliyatini kuzatish va strategiyani vaziyatga moslashtirish tarjima kompetensiyasining muhim omillaridir [Xu & Guénier, 2025]. Shu bois talaba qarorni rejalashtirish, tekshirish va zarur bo‘lsa qayta ko‘rib chiqishga o‘rgatilishi kerak; tahliliy-refleksiv sharh shu jarayonda kasbiy o‘zini o‘zi nazorat qilish vositasiga aylanadi.

Tarjima qarorini baholashda faqat yakuniy gapning ravonligi yoki lug‘aviy yaqinligi yetarli emas. Funksional yondashuv tarjima birliklarini matnning kommunikativ vazifasi, janri, muallif pozitsiyasi va mo‘ljallangan o‘quvchisi bilan bog‘laydi. K.Nord tarjima topshirig‘i va maqsadli funksiyani qaror qabul qilishning tashkiliy markazi sifatida ko‘rsatadi [Nord, 2018]. Y.Xaus esa sifatni baholashda registr, janr va matn funksiyasi o‘rtasidagi moslikni tekshirish lozimligini ta’kidlaydi [House, 2015]. Shu nuqtayi nazardan, bir variant grammatik jihatdan to‘g‘ri bo‘lsa ham, obraz, tarixiy masofa yoki personaj ovozini susaytirsa, uning funksional qiymati

cheklanishi mumkin.

Mahalliy tarjimashunoslik an'anasi ham mazkur funksional yondashuv uchun muhim nazariy tayanch beradi. G'.Salomov adekvat badiiy tarjima masalasini uslub, milliy xoslik, janr xususiyati, davr koloriti hamda shakl va mazmun birligini o'zaro bog'liq holda tahlil qiladi [Salomov, 1983]. Q.Musayev tarjimani bir tilda yaratilgan matnni uning shakl va mazmun birligini saqlagan holda o'zga til vositalari asosida qayta yaratish jarayoni sifatida izohlaydi va mazmuniy-uslubiy adekvatlikni tarjima natijasining muhim belgisi deb ko'rsatadi [Musayev, 2005]. I.G'afurov, O.Mo'minov va NQambarov tarjima nazariyasini ekvivalentlik, madaniyat, so'zlarni qiyosiy o'rganish va tarjimonning amaliy tanlovlari bilan bog'liq masalalar tizimida yoritadi [G'afurov va boshq., 2012]. Shu nuqtayi nazardan, ushbu maqoladagi funksional asoslash modeli xalqaro funksional va kognitiv yondashuvlarni O'zbekiston tarjimashunosligidagi shakl-mazmun, uslub va milliy-madaniy xususiyatni kompleks baholash an'anasi bilan tutashtiradi.

Tarjima kompetensiyasi ko'p tarkibli tizim sifatida til bilimidan tashqari strategik, instrumental, ekstralingvistik va muammolarni hal qilish subkompetensiyalarini qamrab oladi. TKEB (Tarjima kompetensiyasini egallash va baholash) guruhi qaror qabul qilishni tarjima kompetensiyasini farqlovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri sifatida tavsiflaydi [PACTE, 2005]. Z.Gyopferix modelida strategik kompetensiya boshqa komponentlarni muvofiqlashtiruvchi boshqaruv mexanizmi sifatida talqin qilinadi [Göpferich, 2009]. Bu nazariy qarashlar talabaning "nima tarjima qilindi?" degan savoldan tashqari "nega aynan shu variant tanlandi?" va "uning oqibati nima?" degan savollarga ham javob bera olishini talab qiladi.

Badiiy tarjimada qarorlar ko'pincha noaniqlik sharoitida qabul qilinadi. E.Anjeloun noaniqlikni aniqlash, unga mos strategiyani tanlash va yechimni tekshirishni metakognitiv muammo yechishning ketma-ket bosqichlari sifatida ko'rsatadi [Angelone, 2010]. G.Shriv ekspertlikni ko'p martalik, maqsadli mashq va teskari aloqa bilan bog'laydi [Shreve, 2006]. Demak, auditoriyada tayyor tarjima namunasini berishdan ko'ra variantlar yaratish, ularni dalillash va qayta tahrirlash jarayonini tashkil etish professional rivojlanish uchun samaraliroqdir.

Mazkur tadqiqotda funksional asoslash pedagogik nazorat vositasi sifatida ham qaraladi. D.Kirali hamkorlikdagi loyiha va autentik vazifalar orqali bilimning ijtimoiy qurilishini asoslaydi [Kiraly, 2000]. D.Kelli esa o'quv maqsadlari, topshiriq va baholash mezonlari o'zaro mos bo'lishi kerakligini ko'rsatadi [Kelly, 2005]. Shuning uchun taklif etilayotgan model bir vaqtning o'zida tarjima tahlili, yozma refleksiya va mezonli baholashni birlashtiradi.

TADQIQOT METODLARI

Tadqiqot sifat tahliliga asoslangan nazariy-metodik ishdir. Korpus sakkizta yangi holatni qamrab oladi: muallif monografiyasidagi "Navro'znoma"dan Jamshid va Kayumarsga oid ikki parcha [Maksudov, 2026], Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani [Cho'lpon, 2019] va K.Fort tarjimasidan uch misol [Fort, 2019], A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani [Qodiriy, 2019] hamda M.Riz [Reese, 2018], K.Ermakova

[Ermakova, 2018], I.To‘xtasinov, O.Mo‘minov va A.Hamidov tarjimalaridan uch misol [To‘xtasinov et al., 2017]. Muallifning oldingi maqolalarida tahlil qilingan materiallar korpusga kiritilmadi.

Qiyosiy, kontekstual-funksional, komponent, pragmatik va uslubiy tahlil hamda metodik modellashtirish usullari qo‘llanildi. Har bir holatda asliyat birligining vazifalari, nashr etilgan tarjimaning yutuq va yo‘qotishlari aniqlandi, u muqobil yechim bilan qiyoslandi va qaysi tarjima maqsadi hamda o‘quvchi guruhi uchun maqbul ekani asoslandi. Tanlash mezonlari quyidagilar bo‘ldi: matnlarning nashr etilganligi, misolning avval ishlatilmaganligi, bir nechta funksiyani birlashtirishi va muqobil strategiyalarni qiyoslash imkoniyati.

Funksional asoslash modeli

Model yetti o‘zaro bog‘liq amalni birlashtiradi: kontekstni tiklash; asliyat birligining referensial, pragmatik, uslubiy, madaniy va matniy vazifalarini aniqlash; ularni yetakchi va ikkilamchi guruhlarga ajratish; kamida ikki muqobil variant yaratish; har bir variantning yutuq, yo‘qotish va xatarlarini qiyoslash; tanlovni tekshiriladigan dalil bilan asoslash; yakuniy yechimni jumla, paragraf va butun matn doirasida qayta ko‘rib chiqish. Bu qat’iy algoritm emas, ammo amallarni yozma qayd etish talabaning fikrlash yo‘lini muhokama va baholash uchun ochiq qiladi. Ushbu amallar va ularga mos yozma natijalar quyidagi jadvalda muallif tomonidan tizimlashtirildi (1-jadvalga qarang):

1-jadval.

Tarjima qarorini funksional jihatdan asoslash kartasi

Tahlil bosqichi	Talabaning asosiy savoli	Yozma natija
Kontekst	Birlik qaysi vaziyatda va qanday matniy aloqada qo‘llangan?	Vaziyatning 2-3 jumladan iborat tavsifi
Funksional tarkib	Asliyatdagi birlik bir vaqtning o‘zida qanday vazifalarni bajaradi?	Yetakchi va qo‘llab-quvvatlovchi funksiyalar ro‘yxati
Muqobil variantlar	Qaysi strategiyalar amalda qo‘llash mumkin bo‘lgan yechimlarni beradi?	Kamida 2-3 tarjima varianti
Qiyoslash	Har bir variant nimani saqlaydi, kuchaytiradi yoki o‘zgartiradi?	Yutuq, yo‘qotish va ehtimoliy xatarlar tahlili
Tanlov	Qaysi variant tarjima maqsadiga ko‘proq mos keladi?	Asoslangan qaror bayoni
Yakuniy tekshiruv	Tanlangan yechim butun matn bilan izchilmi?	Tahrirlangan yakuniy variant

Baholash mezonlari

Yakuniy tarjima va unga yozilgan sharh alohida, biroq bog‘liq natijalar sifatida baholanadi. Asosiy mezonlar: kontekstning to‘g‘ri tiklanishi; semantik, pragmatik, uslubiy, madaniy va matniy funksiyalarning aniqlanishi; muqobil variantlarning til me’yoriga mosligi; tanlovning qiyosiy dalillanishi; yo‘qotish va qo‘shimcha ma’nolarning nazorat qilinishi; yechimning butun matnga mosligi. 100 ballik tizimda kontekst va funksiyalar – 20 ball; muqobil variantlar – 15 ball; qiyosiy asoslash – 20 ball; funksional oqibatlar – 20 ball; yakuniy matn – 15 ball; sharh va tahrir – 10 ball.

Korpusni shakllantirishda maqsadli tanlash tamoyili qo‘llanildi. Birinchidan,

faqat nashr etilgan asliyat va tarjimalar olindi. Ikkinchidan, har bir misol kamida ikki funksional qatlamni – masalan, referensial va madaniy, uslubiy va pragmatik yoki matniy va obrazli funksiyalarni – birlashtirishi shart edi. Uchinchidan, misol muqobil tarjima strategiyalarini yaratishga imkon berishi talab qilindi. To‘rtinchidan, muallifning avvalgi ishlarida batafsil tahlil qilingan birliklar chiqarib tashlandi. Bunday cheklash natijalarni umumlashtirishni to‘liq ta’minlamaydi, biroq modelning analitik imkoniyatini turli tipdagi tarjima muammolarida tekshirishga sharoit yaratadi.

Tahlil birligi alohida so‘z bilan chegaralanmadi. Zarur hollarda sintagma, gap, qo‘shni gaplar yoki kichik epizod funksional kontekst sifatida olindi. M.Beyker ekvivalentlik muammolarini so‘z, grammatik tuzilma, matn va pragmatika darajalarida farqlash zarurligini ko‘rsatadi [Baker, 2018]. B.Xatim va Y.Meyson tarjimon faoliyatini kommunikativ, pragmatik va semiotik o‘lchovlar o‘zaro ta’siri sifatida tavsiflaydi [Hatim & Mason, 1997]. Shu sababli birlikning lug‘aviy ma’nosi avval aniqlanib, so‘ng uning epizoddagi vazifasi, personaj nutqiga ta’siri, madaniy belgisi va keyingi matniy aloqalari tekshirildi.

Har bir holat uchun tahlil protokoli tuzildi. Protokolda asliyat birligi, bevosita kontekst, nashr etilgan tarjima, muqobil variantlar, yetakchi funksiya, yordamchi funksiyalar, yutuqlar, yo‘qotishlar, ehtimoliy xatarlar va tavsiya etilgan yechim qayd etildi. S.Kolina tarjima sifatini baholashda maqsad, matn turi, xato og‘irligi va o‘quvchi ehtiyojini birgalikda hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi [Colina, 2015]. Protokol aynan shu omillarni aniq va takror tekshiriladigan shaklga keltirdi.

Ishonchlilikni oshirish uchun tahlil ikki bosqichda bajarildi. Birinchi bosqichda har bir misol alohida tahlil qilinib, kamida ikki muqobil variant yaratildi. Ikkinchi bosqichda barcha misollar qiyoslanib, mezonlar bir xil qo‘llangan-qo‘llanmagani tekshirildi. G.Masey va M.Erensberger-Dou jarayon ma’lumotlari hamda sharhlardan foydalanish talaba qarorlarini ko‘rinadigan va muhokama qilinadigan qilishini ko‘rsatadi [Massey & Ehrensberger-Dow, 2011]. Mazkur tadqiqotda yozma protokol ana shunday tashqi kuzatuv vositasi vazifasini bajardi.

Metodologik jihatdan tadqiqot eksperimental samaradorlikni o‘lchamaydi; u modelni nazariy va materialga tatbiq etish darajasida sinaydi. Shu bois natijalar sababiy pedagogik ta’sir sifatida emas, kelgusidagi tajriba uchun asoslangan metodik gipoteza sifatida talqin qilindi. J.Mandey, S.R. Pinto va J.Bleyksli tarjima nazariyalarini amaliy tahlilda bir-birini istisno qiluvchi sxemalar emas, turli muammolarni yoritadigan vositalar sifatida qo‘llash zarurligini ta’kidlaydi [Munday et al., 2022].

NATIJALAR

Korpusdagi sakkiz holat tarixiy bayon va madaniy nomlar, o‘zbek nasridagi milliy-maishiy birliklar va obrazli parallelizm, shuningdek, nasl davomiyligi, urf-odat hamda personaj xarakterini ochuvchi detallar guruhida tahlil qilindi (2-jadvalga qarang):

2-jadval.

Qiyosiy tahlilga olingan sakkizta misol va ularning nashr etilgan tarjimalari

№	Asliyatdagi birlik yoki fragment	Nashr etilgan inglizcha tarjima	Qiyoslash markazi
1.	“Chun Jamshid on ro‘zro daryoft, Navro‘z nom nihod va jashn oyin ovard” [Maksudov, 2026].	“When Jamshed has comprehended this day, he named it Nawruz and has brought it into custom as a holiday” [Maksudov, 2026].	tarixiy zamon ketma-ketligi, tabiiy kollokatsiya va Navro‘z nomining saqlanishi
2.	“az muluki Ajam”; “Va qissai on chunon ast” [Maksudov, 2026].	“the King of Iran”; “They say” [Maksudov, 2026].	Ajam tushunchasining tarixiy-madaniy ko‘lami va rivoyatning kompozitsion ramkasi
3.	“qabristonlar qadar jimjit, xonaqohlar qadar unsiz, o‘z ko‘ngli qadar tund va xo‘mraygan” [Cho‘lpon, 2019: 8].	“the quiet of a graveyard, the silence of a mosque, whose very soul was coarse and frowning” [Fort, 2019: 49-50].	uch qismli qiyosiy parallelizm, xonaqoh realiyasi va qo‘shimcha baholovchi ma’no
4.	“So‘richadan turib kelib” [Cho‘lpon, 2019: 61].	“got up from the platform” [Fort, 2019: 102].	so‘ri realiyasining fazoviy va milliy-maishiy mazmuni
5.	“Bir ozgina patir bilan somsa” [Cho‘lpon, 2019: 35].	“a flatbread and samosas” [Fort, 2019: 60].	milliy taom nomlari, umumlashtirish va madaniy identifikatsiya
6.	“tuyog‘imiz” [Qodiriy, 2019: 6].	“all that will remain” [Reese, 2018: 241]; “our only trace” [Ermakova, 2018: 135]; “continue our family-kin” [To‘xtasinov et al., 2017: 141].	nasl davomiyligini ifodalovchi sinekdoxa, obrazni saqlash va eksplikatsiya
7.	“Charlaring ham bo‘la qolmadiki ...” [Qodiriy, 2019: 162].	“Your charlar has not been arranged yet, as tradition demands” [Reese, 2018: 276].	marosim nomini saqlash va kontekstual izoh bilan tushunarlilikni ta’minlash
8.	“sallasini olib tizzasiga qo‘ydi, bosh qashinishib yana sallasini kiydi”; “tergov ostida” [Qodiriy, 2019: 162].	“unrolled the turban ... scratched his head ... wound the turban back”; “serious inquisition” [Reese, 2018: 276].	imo-ishorani eksplitsitatsiya qilish va pragmatik keskinlik darajasi

Birinchi holat – **tarixiy ketma-ketlik** va **madaniy nom**. “Navro‘znoma”dagi “Chun Jamshid on ro‘zro daryoft, Navro‘z nom nihod va jashn oyin ovard” jumlasi inglizcha tarjimada “When Jamshed has comprehended this day, he named it Nawruz and has brought it into custom as a holiday” shaklida berilgan; keyingi gapda esa hukmdorlar va boshqa kishilar “have followed it” tarzida ifodalangan [Maksudov, 2026: 96–98]. Asliyatdagi harakatlar o‘tgan zamondagi izchil tarixiy ketma-ketlikni tashkil etadi. Tarjimadagi present perfect va simple past shakllarining almashuvi bu zamon rejasini bir xilda saqlamaydi; “has brought it into custom” birikmasi tabiiy inglizcha ifoda emas; “followed it” esa kimga yoki nimaga ergashilgani haqida noaniqlik tug‘diradi. Funksional jihatdan aniqroq variant quyidagicha bo‘lishi mumkin: “When Jamshid recognized that day, he named it Navruz and established its observance as a festival; thereafter, kings and other people followed his example”.

Bunda bayram nomi, tarixiy ketma-ketlik va taqlid obyekti aniq ifodalanadi. Muallif bahosiga koʻra, nashr etilgan variant voqeaning referensial asosini yetkazadi, biroq zamon shakllarining almashishi tarixiy bayonning izchil vaqt rejasini zaiflashtiradi; “has brought it into custom” birikmasi semantik jihatdan anglashilsa-da, ingliz tilining tabiiy kollokatsion me’yoriga toʻliq mos kelmaydi; “followed it” esa aniq referentni bermaydi. Shu sababli taklif etilgan variantning ustunligi soʻzma-soʻz yaqinlikda emas, balki bir xil oʻtgan zamon rejasi, bayram nomi va keyingi taqlid munosabatini bir vaqtda aniqroq boshqarishidadir.

Ikkinchi holat – **tarixiy-madaniy atama** va **rivoyat ramkasi**. Kayumars haqidagi parchada “az muluki Ajam” birikmasi “the King of Iran” shaklida berilib, tarixiy Ajam tushunchasi zamonaviy siyosiy-geografik nom bilan almashtirilgan; “Va qissai on chunon ast” kompozitsion kirishi esa “They say” tarzida qisqartirilgan [Maksudov, 2026: 98–100]. Ajam atamasi ushbu kontekstda forsiy madaniy-siyosiy makon va uning hukmdorlariga doir tarixiy tasavvurni ifodalaydi; uni Iran bilan toʻliq tenglashtirish mazmun koʻlamini toraytiradi. “They say” esa “hikoya quyidagicha” mazmunidagi mualliflik ramkasini noma’lum xabar manbasiga aylantiradi. “The story is as follows: when Kayumars, the first of the kings of Ajam, ascended the throne ...” varianti rivoyat ramkasini tiklaydi va Ajam nomini saqlaydi. Uning tarixiy mazmuni matn ichidagi ixcham izoh yoki lugʻat orqali ochilishi mumkin. Muallif nuqtayi nazaridan, “the King of Iran” oʻquvchiga tezroq tushunarli boʻlishi mumkin, ammo bu qulaylik tarixiy tushuncha koʻlamining torayishi hisobiga yuzaga keladi. Ajamni saqlash esa maqsadli oʻquvchidan qoʻshimcha madaniy bilim talab qiladi, lekin matnning tarixiy masofasini va terminologik oʻziga xosligini yaxshiroq saqlaydi. “They say” ham axborot manbasini noaniqlashtirgani uchun kompozitsion “hikoya quyidagicha” ramkasini zaiflashtiradi; izohli yoki ilmiy nashr uchun Ajamni saqlagan variant funksional jihatdan afzalroq deb baholanadi.

Uchinchi holat – **uch qismli obrazli parallelizm**. Choʻlpon Razzoq soʻfining uyini “qabristonlar qadar jimjit, xonaqohlar qadar unsiz, oʻz koʻngli qadar tund va xoʻmraygan” boʻlishini istagan makon sifatida tasvirlaydi [Choʻlpon, 2019: 8]. K.Fort tarjimasidagi “the quiet of a graveyard, the silence of a mosque, whose very soul was coarse and frowning” shakli uch qismli tasvirning umumiy harakatini va undan keyingi “chaos” bilan keskin qarama-qarshilikni saqlaydi [Fort, 2019: 49-50]. Biroq takrorlangan qadar qiyoslash shakli aynan qayta yaratilmagan; xonaqoh mosque orqali umumlashtirilgan; tund va xoʻmraygan esa coarse and frowning tarzida kengaytirilib, asliyatda bevosita boʻlmagan qoʻpollik ma’nosini ham faollashtirgan. “as quiet as a graveyard, as silent as a Sufi lodge, and as sullen and forbidding as his own heart” kabi variant qiyosiy parallelizmni, madaniy makonni va personaj ruhiyatini aniqroq uygʻunlashtiradi. Muallif bahosiga koʻra, K.Fort tarjimasi sahnaning umumiy kayfiyatini va qabriston-sukut assotsiatsiyasini muvaffaqiyatli yetkazadi, shuning uchun uni umumiy ta’sir nuqtayi nazaridan muvaffaqiyatsiz deb boʻlmaydi. Biroq qadar konstruksiyasining uch karra takroridan hosil boʻlgan ritm susayadi, xonaqohning mosque bilan almashtirilishi tasavvufiy-madaniy belgi doirasini kengroq diniy tushunchaga aylantiradi, coarse esa asliyatda aniq ifodalanmagan qoʻpollik

bahosini qo‘shadi. Muqobil variant shu uch qatlamni birgalikda saqlashga intilgani uchun stilistik va madaniy jihatdan izchilroqdir.

To‘rtinchi holat – **so‘ri realiyasining fazoviy-madaniy mazmuni**. “So‘richadan turib kelib” birikmasi inglizchada “got up from the platform” tarzida berilgan [Cho‘lpon, 2019: 61; Fort, 2019: 102]. Platform so‘rining ko‘tarilgan tekis joy ekanini umumiy tarzda anglatadi, biroq uning hovli hayoti, ochiq havoda o‘tirish va dam olish bilan bog‘liq milliy-maishiy mazmunini to‘liq faollashtirmaydi. Realiya birinchi marta qo‘llanilganda “the raised courtyard platform (so‘ri)” shaklidan foydalanish, keyingi o‘rinlarda esa so‘ri yoki platform variantini kontekstga qarab takrorlash referensial aniqlik va matn ravonligi o‘rtasida muvozanat yaratadi. Bunday ixcham izoh ortiqcha tafsilot emas, balki yo‘qolishi mumkin bo‘lgan fazoviy-madaniy ma’noni qisman qoplash vositasidir. Muallif bahosiga ko‘ra, platform referentning ko‘tarilgan tekis joy ekanini beradi va gapning harakatini to‘xtatmaydi, ammo so‘rining o‘zbek hovli madaniyatidagi yashash, suhbat va dam olish makoni ekanini neytrallashtiradi. Birinchi uchrashuvda “raised courtyard platform (so‘ri)” kabi qisqa izoh berib, keyingi o‘rinlarda so‘ri shaklini saqlash nafaqat realiyani tushuntiradi, balki butun asar bo‘ylab terminologik izchillik yaratadi. Ommaviy nashrda qisqartirish mumkin, izohli nashrda esa madaniy nomni saqlash kuchliroq asosga ega.

Beshinchi holat – **milliy taom nomlarining umumlashtirilish**i. “Bir ozgina patir bilan somsa” birikmasi inglizchada “a flatbread and samosas” shaklida berilgan [Cho‘lpon, 2019: 35; Fort, 2019: 60]. Flatbread patirning umumiy non turiga mansubligini anglatadi, ammo uning mahalliy nomi va tayyorlanish xususiyatini neytrallashtiradi. Samosa ingliz tilida keng tarqalgan shakl bo‘lsa-da, o‘zbek somsasining tandirda pishirilishi, shakli va mahalliy maishiy assotsiatsiyalari tarjimada to‘liq namoyon bo‘lmasligi mumkin. “patir and samsa” shaklini lug‘at yoki matn ichidagi ixcham izoh bilan qo‘llash madaniy o‘ziga xoslikni kuchliroq saqlaydi; “flatbread and filled pastries” kabi tavsifiy variant esa tushunarlilikni oshirib, milliy nomlarni yo‘qotadi. Qaror tarjima strategiyasi va nashrdagi izohlar tizimiga muvofiq asoslanishi lozim. Muallif nuqtayi nazaridan, “a flatbread and samosas” o‘quvchiga predmetning umumiy turini tez tanitadi va ravonlikni oshiradi, ammo patirning mahalliy nomi hamda somsaning o‘zbek gastronomik konteksti qisman yo‘qoladi; “patir and samsa” varianti esa madaniy identifikatsiyani saqlaydi, lekin izohsiz berilganda qabul qilishni qiyinlashtirishi mumkin. Shuning uchun bu misolda eng kuchli yechim bitta mutlaq ekvivalent emas, balki nashr strategiyasiga qarab transliteratsiya va ixcham tushuntirishni muvozanatlashtiradigan variantdir.

Oltinchi holat – **nasl davomiyligini ifodalovchi sinekdoxa**. A.Qodiriy matnidagi “tuyog‘imiz” so‘zi Yusufbek hojining Otabekni o‘zidan keyin qoladigan yagona avlod sifatida ko‘rishini ixcham tarixiy obraz bilan ifodalaydi [Qodiriy, 2019: 6]. M.Riz “all that will remain” orqali nasl davomiyligi ma’nosini saqlaydi, ammo tuyoq obrazini neytrallashtiradi [Reese, 2018: 241]. K.Ermakovaning “our only trace” varianti davomiylikni boshqa obraz – iz orqali qayta yaratadi [Ermakova, 2018: 135]. I.To‘xtasinov, O.Mo‘minov va A.Hamidov tarjimasida esa oilaviy naslning davom etishi bevosita tushuntiriladi [To‘xtasinov et al., 2017: 141]. Birinchi yechim

mazmunni, ikkinchisi obrazlilikni, uchinchisi tushunarlilikni ustuvorlashtiradi; tanlov personaj nutqining tarixiy-uslubiy xususiyatini qay darajada saqlashi bilan baholanadi. Muallif bahosiga koʻra, M.Riz varianti avloddan qoladigan yagona davomiylik maʼnosini beradi, biroq "tuyoq"ning predmetli obrazini yoʻqotadi; K.Ermakovaning "our only trace" yechimi esa boshqa metaforik obraz orqali ixchamlik va emotsional tusni qisman tiklaydi. I.Toʻxtasinov va hammualliflar tarjimasidagi "continue our family-kin" mazmunni ochiq tushuntiradi, ammo personaj nutqining tarixiy-obrazli siqiqligini prozaik izohga aylantiradi. Shu sababli bu uch variantni "toʻgʻri-notoʻgʻri" tarzida emas, mazmun, obraz va tushunarlilikning qaysi biri ustuvor qoʻyilgani boʻyicha baholash maqsadga muvofiq.

Yettinchi holat – **charlar marosimini saqlash** va **kontekst orqali tushuntirish**. "Charlaring ham boʻla qolmadiki ..." jumlasidagi charlar nikoh toʻyidan keyin kelinning ota uyiga borishi bilan bogʻliq maxsus marosimni anglatadi. M.Riz bu realiyani "Your charlar has not been arranged yet, as tradition demands" shaklida beradi [Qodiriy, 2019: 162; Reese, 2018: 276]. Transliteratsiya qilingan charlar madaniy nomni saqlaydi, "as tradition demands" birikmasi esa uning urf-odatga aloqadorligini matn ichida ixcham tushuntiradi. Toʻliq tavsifiy tarjima dialogni ogʻirlashtirishi, izohsiz transliteratsiya esa anglashni qiyinlashtirishi mumkin. Mazkur yechim realiyani saqlash va kontekstual izohlash oʻrtasidagi muvozanatni koʻrsatadi. Muallif nuqtayi nazaridan, bu yechim korpusdagi eng muvozanatli qarorlardan biridir: charlar nomi begonalashtiruvchi belgi sifatida saqlanadi, "as tradition demands" esa uning oddiy kun yoki tasodifiy tashrif emas, urf-odat bilan bogʻliq hodisa ekanini koʻrsatadi. Shu bilan birga, izoh marosimning barcha etnografik tafsilotlarini dialog ichiga yuklamaydi. Agar asar oxirida lugʻat mavjud boʻlsa, aynan shu shakl matniy ravonlik va madaniy aniqlikning samarali muvozanati sifatida baholanishi mumkin.

Sakkizinchi holat – **imo-ishoraning ochiqroq ifodalanishi**. Asliyatda Yusufbek hoji "sallasini olib tizzasiga qoʻydi, bosh qashinishib yana sallasini kiydi"; Otabek bu harakatdan soʻng koʻpincha oʻzini "tergov ostida" his qilishi aytiladi. Inglizcha tarjimada salla matosini yechish, tizzaga qoʻyish, boshni qashish va qayta oʻrash jarayoni batafsil ochilgan [Qodiriy, 2019: 162; Reese, 2018: 276]. Bunday eksplitsitatsiya imo-ishorani ingliz oʻquvchisiga ravshanlashtiradi. Biroq "serious inquisition"dagi inquisition diniy-tarixiy yoki haddan tashqari qattiq soʻroq assotsiatsiyasini uygʻotishi mumkin; asliyatdagi tergov maʼnosiga "a serious questioning" yoxud "an interrogation" yaqinroq. Demak, harakatni izohlash asosli, lekin pragmatik keskinlikni oshirmaslik zarur. Muallif bahosiga koʻra, imo-ishoraning bosqichma-bosqich ochilishi ingliz oʻquvchisiga harakatni koʻz oldiga keltirish va Otabekning keyingi reaksiyasi sababini tushunishga yordam beradi; demak, eksplitsitatsiyaning oʻzi funksional jihatdan asosli. Muammo "serious inquisition" birikmasida yuzaga keladi: inquisition soʻzi ingliz tilida tarixiy-diniy va keskin jazolovchi assotsiatsiyalarni uygʻotishi mumkin. Asliyatdagi "tergov ostida" esa oilaviy, psixologik bosimni bildiradi; shu bois "serious questioning" yoki kontekstga qarab "interrogation" pragmatik intensivlikni nazorat qilgan holda mazmunga yaqinroq yechim beradi.

Sakkizta holatning umumiy natijasi tadqiqot gipotezasini qoʻllab-quvvatlaydi.

Tarjima varianti barcha mezonlar bo‘yicha mutlaq ustun bo‘la olmaydi: madaniy nomni saqlash o‘quvchidan qo‘shimcha madaniy bilim talab qilishi; tushuntirish tarixiy nutqni soddalashtirishi; umumlashtirish ravonlikni oshirib, obrazlilikni kamaytirishi; eksplitsitatsiya esa harakatni ravshanlashtirib, pragmatik keskinlikni kuchaytirishi mumkin. Funksional asoslashning vazifasi bu munosabatlarni yashirish emas, balki qaysi yutuq yetakchi vazifaga xizmat qilishini, qaysi yo‘qotish maqbul ekanini va uni qanday vosita bilan qoplash mumkinligini aniq matniy dalillar asosida ko‘rsatishdir.

Auditoriyada qo‘llash

Model 80 daqiqalik mashg‘ulotda kontekstni aniqlash, funksiyalarni ustuvorlashtirish, uch variant yaratish, guruh himoyasi, o‘zaro baholash va yakuniy tahrir bosqichlarida qo‘llash mumkin. O‘qituvchi tayyor javob bermasdan, obraz, madaniy mazmun, qo‘shimcha ma’no va matniy izchillikka doir savollar orqali tahlilni boshqaradi.

Raqamli vositalar

Elektron lug‘at, parallel korpus va generativ tizimlar variantlar doirasini kengaytiradi, biroq qarorni talaba o‘rniga asoslamaydi. Har bir raqamli taklif asliyat, ishonchli manba, janr me’yori va o‘quvchi ehtiyojiga ko‘ra tekshiriladigan gipoteza sifatida baholanadi.

Modelning cheklovlari

Funksiyalar ustuvorligi mutlaq emas, mezonlarning ko‘pligi esa boshlang‘ich bosqichda ortiqcha kognitiv yuk tug‘dirishi mumkin. Shu sababli model bosqichma-bosqich joriy etilishi va nazorat hamda tajriba guruhlari, tahrir ma’lumotlari va ekspert baholari orqali empirik tekshirilishi lozim.

Taklif etilgan tartib o‘quv natijalarini shaffofroq qayd etish, baholovchilar o‘rtasidagi tafovutni kuzatish va talabaning keyingi topshiriqlarda ayni mezonlarni mustaqil qo‘llashini tekshirish uchun asos yaratadi. Bu imkoniyatlarning amaliy samarasi alohida tajribada baholanishi kerak.

Amaliy qo‘llashda karta bitta qat’iy javobni talab qilmaydi. Ikki yoki undan ortiq variant turli tarjima topshiriqlari uchun teng darajada asosli bo‘lishi mumkin. Masalan, ilmiy izohli nashr madaniy nomni saqlash va sharhlashni, ommaviy nashr esa ixcham tavsifni afzal ko‘rishi mumkin. Baholashda talabaning o‘qituvchi variantini takrorlashi emas, o‘z tanlovini izchil mezonlar va tekshiriladigan dalillar bilan himoya qilishi asosiy natija sifatida qaraladi.

Funksiyalar iyerarxiyasini belgilash jarayonida matnning lokal va global maqsadi o‘rtasidagi farq ham hisobga olindi. Lokal darajada birlik ma’lum predmetni nomlashi, obraz yaratishi yoki dialogning tabiiyligini ta’minlashi mumkin; global darajada esa u asarning tarixiy muhitini, muallif pozitsiyasini yoki personajlar tizimini shakllantiradi. Agar lokal ravonlik global uslubiy yaxlitlik hisobiga erishilsa, variant qisqa parcha doirasida muvaffaqiyatli ko‘rinsa ham, butun asar doirasida zaiflashadi. Shu sababli yakuniy tekshiruv bosqichi oldingi qarorlarning kumulyativ ta’sirini baholashga qaratildi.

Tadqiqot davomida bir xil tarjima texnikasi turli kontekstlarda turlicha

funksional natija berishi aniqlandi. Masalan, umumlashtirish ba’zan ortiqcha tafsilotni kamaytirib, matn ritmini saqlaydi; boshqa holatda esa realiyaning tarixiy va madaniy yukini yo‘qotadi. Transliteratsiya bir o‘rinda zarur madaniy belgini saqlasa, boshqa o‘rinda o‘quvchiga tushunarsiz terminlar qatlamini ko‘paytirishi mumkin. Demak, texnikaning nomi qarorning sifatini oldindan belgilamaydi; uning maqbulligi aynan qaysi funksiyani saqlashi va qanday yo‘qotish keltirib chiqarishi bilan aniqlanadi.

Funksional asoslash modeli o‘qituvchining teskari aloqasini ham aniqroq qiladi. Umumiy “noto‘g‘ri”, “noaniq” yoki “uslubga mos emas” kabi izohlar talabaning keyingi qaroriga yetarli yo‘l-yo‘riq bermaydi. Model asosida o‘qituvchi qaysi funksiya noto‘g‘ri aniqlangani, muqobil variantlar yetarlicha qiyoslanmagani, dalil manbaga tayanmagani yoki tanlangan yechim butun matn strategiyasiga zid ekanini ko‘rsatishi mumkin. Bunday teskari aloqa xatoni faqat tuzatmaydi, balki uning paydo bo‘lish mexanizmini tushuntiradi.

Taklif etilgan yondashuvning yana bir afzalligi akademik halollik bilan bog‘liq. Talaba har bir manbaviy dalilni nashr ma’lumoti bilan, bevosita iqtibos yoki tor doiradagi fikrga tayanganda esa aniq sahifa bilan ko‘rsatishi kerak. Bu talab ayniqsa raqamli va generativ vositalardan foydalanish sharoitida muhimdir. Funksional sharhda har bir tashqi ma’lumotning vazifasi aniq ko‘rsatiladi: u tarixiy tushunchani izohlaydimi, kollokatsiyani tasdiqlaydimi, janr me’yorini ko‘rsatadimi yoki tarjima variantining pragmatik oqibatini asoslaydimi.

Shuningdek, model individual uslubiy afzallik bilan tekshiriladigan professional qarorni farqlashga yordam beradi. Tarjimon ma’lum variantni estetik didi sababli yoqtirishi mumkin, biroq ilmiy asoslashda bu did matn dalili, tarjima topshirig‘i va o‘quvchi ehtiyoji bilan bog‘lanishi kerak. Mazkur farq subyektivlikni butunlay yo‘q qilmaydi, chunki badiiy tarjima talqin faoliyatidir; u subyektiv tanlovni ochiq, munozara qilinadigan va qayta ko‘rib chiqiladigan holga keltiradi.

Natijalarni mezonlar bo‘yicha umumlashtirish shuni ko‘rsatdiki, referensial aniqlik sakkiz holatning barchasida zarur bo‘lsa-da, u yakuniy tanlovni yolg‘iz belgilamadi. Masalan, Ajam, so‘ri, patir, somsa va charlar birliklarida predmet yoki hodisani to‘g‘ri nomlash madaniy masofani saqlash bilan chambarchas bog‘liq bo‘ldi. Agar tarjima faqat umumiy denotativ ma’noni bersa, o‘quvchi voqeaning asosiy mazmunini anglaydi, ammo matnning tarixiy va milliy belgisi kamayadi. Shu sababli referensial aniqlik madaniy identifikatsiya, janr me’yori va izoh berish imkoniyati bilan birgalikda baholandi.

Pragmatik funksiya, ayniqsa, imo-ishora, tergov semantikasi va personajga xos baholovchi birliklarda muhim bo‘ldi. Biror harakatni batafsil izohlash voqeaning mantiqiy aloqasini ravshanlashtiradi, biroq izohning leksik tanlovi asliyatdagi emotsional bosimni kuchaytirishi yoki kamaytirishi mumkin. Shuning uchun eksplitsitatsiya avtomatik ravishda aniqlikning oshishi deb qabul qilinmadi. Har bir qo‘shimcha unsur matnda mavjud bo‘lgan inferensiyani tushuntiradimi yoki yangi baholovchi ma’no kiritadimi degan savol orqali tekshirildi.

Uslubiy mezon tarixiy bayon, qiyosiy parallelizm va personaj nutqining ijtimoiy rangini tahlil qilishda asosiy vosita bo‘ldi. Tarjimadagi zamon shakllarining

almashuvi, takrorning qisqarishi yoki neytral so‘zning kuchli baholovchi birlik bilan almashtirilishi voqeaning faktik mazmunini to‘liq buzmasligi mumkin. Biroq bunday o‘zgarishlar muallifning bayon ritmi, masofa va xarakter yaratish strategiyasiga ta’sir qiladi. Funksional model aynan shu ikkilamchi ko‘ringan, ammo badiiy matn uchun markaziy oqibatlarni alohida qayd etadi.

Matniy izchillik mezoni alohida birlikni butun asar strategiyasidan ajratib baholamaslikni talab qildi. Realiya birinchi uchragan joyda izohlanib, keyingi o‘rinlarda qisqa shaklda saqlanishi mumkin; aksincha, har gal yangi tavsif berish matnni og‘irlashtiradi va terminologik beqarorlik tug‘diradi. Shu sababli tavsiya etilgan variantlar faqat bitta gap uchun emas, takroriy qo‘llanish ehtimoli, lug‘at yoki izohlar tizimi va nashrning umumiy domestikatsiya yoki begonalashtirish strategiyasi nuqtayi nazaridan ham tekshirildi.

Modelda kompensatsiya alohida bosqich emas, yutuq va yo‘qotishlarni boshqarishning transversal tamoyili sifatida qo‘llaniladi. Agar shakliy parallelizm to‘liq saqlanmasa, ritmik takror boshqa sintaktik vosita bilan tiklanishi mumkin; realiya nomi qoldirilsa, uning mazmuni matn ichida yoki lug‘atda ixcham ochiladi; obraz neytrallashsa, personaj ovozining boshqa belgisi kuchaytirilishi mumkin. Muhimi, kompensatsiya yo‘qotishni yashirmasligi, uning sababini va qaysi funksiyani qayta tiklashini aniq ko‘rsatishi kerak.

Baholash kartasi talabaga tanlovning dalillilik darajasini ko‘rsatadigan yozma iz qoldiradi. Masalan, “variant tabiiyroq” degan umumiy hukm yetarli emas; talaba tabiiylikni sintaktik me’yor, kollokatsiya, janr registri yoki o‘quvchi uchun qayta ishlash qulayligi bilan bog‘lashi lozim. Xuddi shuningdek, “asliyatga yaqin” degan baho qaysi qatlam – referensial ma’no, obraz, sintaksis, pragmatik ta’sir yoki madaniy nom – saqlanganini aniqlamasdan ilmiy qiymatga ega bo‘lmaydi. Shu tariqa karta baholovchi terminlarni operatsion mezonlarga aylantiradi.

Guruhli mashg‘ulotda bir xil parcha uchun turli funksional ustuvorliklar berilishi modelning didaktik imkoniyatini kengaytiradi. Bir guruh madaniy belgi va tarixiy masofani, ikkinchi guruh ravonlik va ommaviy o‘quvchi ehtiyojini, uchinchi guruh esa obraz va personaj ovozini ustun deb belgilashi mumkin. Guruhlar o‘z variantlarini himoya qilganda bahs “kimning tarjimasi chiroyliroq?” darajasidan chiqib, maqsad, dalil va oqibatlarni qiyoslashga o‘tadi. Bu usul tarjima topshirig‘ining qarorga qanday ta’sir qilishini amalda ko‘rsatadi.

Natijalar, shuningdek, funksional asoslashning tahrir bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatdi. Birinchi variant ko‘pincha ma’noning asosiy qismini beradi, ammo yozma sharh jarayonida yashirin qo‘shimcha ma’no, stilistik nomuvofiqlik yoki matniy beqarorlik aniqlanadi. Talaba qarorini yozib chiqqach, o‘z tarjimasiga tashqi kuzatuvchi kabi qaytadi va tahrir zaruratini aniqroq ko‘radi. Shunday qilib, refleksiv sharh yakuniy mahsulotga qo‘shilgan formal ilova emas, tarjima sifatini yaxshilovchi ikkinchi ishlov bosqichidir.

MUNOZARA

Natijalar funksional asoslashning eng muhim afzalligi qarorni “to‘g‘ri-

noto‘g‘ri” dixotomiyasidan chiqarib, tekshiriladigan mezonlar tizimiga o‘tkazish ekanini ko‘rsatdi. Sakkiz holatning barchasida nashr etilgan tarjima muayyan vazifani muvaffaqiyatli bajargan, biroq boshqa qatlamda yo‘qotish yoki qo‘shimcha ma’no yuzaga kelgan. Bu holat tarjimada ta’sirlar o‘rtasidagi muqarrar muvozanatni tasdiqlaydi [Pym & Hu, 2025]. Shunday ekan, tahlilning vazifasi tarjimonni retrospektiv ravishda ayblash emas, qaror qanday sharoitda asosli bo‘lishini ko‘rsatishdir.

Madaniy birliklar bo‘yicha natijalar ikki qarama-qarshi xatarni ochdi. Transliteratsiya realiya nomini saqlaydi, ammo izohsiz qolsa o‘quvchi uchun semantik bo‘shliq hosil qiladi; umumlashtirish esa o‘qishni yengillashtiradi, lekin tarixiy va mahalliy belgini neytrallashtiradi. L.Venuti tarjimada ravonlikning hukmronligi manba madaniyatidagi farqni ko‘rinmas holga keltirishi mumkinligini ko‘rsatadi [Venuti, 2018]. Biroq funksional model begonalashtirishni avtomatik ravishda ustun deb hisoblamaydi: qaror matnning janri, nashr apparati, o‘quvchi tayyorgarligi va realiyaning syujetdagi ahamiyatiga qarab belgilanadi.

Obraz va uslubni qayta yaratishda shakliy parallelizm, emotsional baho va personaj ovozi bir-biridan ajralmasligi aniqlandi. Cho‘lpon misolida qiyosiy takrorning saqlanishi nafaqat sintaktik o‘xshashlik, balki tasvir ritmi va xarakter yaratish vazifasini ham bajaradi. Y.Xaus modelidagi registr tahlili matnning maydon, munosabat va usul parametrlarini tekshirish orqali shunday farqlarni aniqlashga yordam beradi [House, 2015]. Demak, “ravonroq” variant har doim “funksionalroq” variant emas.

Natijalar O‘zbekiston tarjimashunosligidagi nazariy an’ana bilan ham mos keladi. G‘.Salomovning uslub, milliy xoslik, davr koloriti va shakl-mazmun birligini birgalikda ko‘rishi [Salomov, 1983] Ajam, so‘ri, patir, somsa va charlar kabi birliklarda denotativ ma’no bilan madaniy belgini ajratmasdan baholash zaruratini tushuntiradi. Q.Musayevning mazmuniy-uslubiy adekvatlik haqidagi qarashi [Musayev, 2005: 8] esa Cho‘lpon parallelizmi va “tuyoq” sinekdoxasi misollarida ayniqsa muhim: referensial ma’no saqlangani bilan ritm, obraz yoki personaj ovozi yo‘qolsa, funksional natija to‘liq ekvivalent deb baholanmaydi. Shu jihatdan taklif etilgan model mahalliy nazariy qarashlarni talabaning aniq qaror protokoli va refleksiv sharhi bilan operatsion darajada bog‘laydi.

Talaba sharhining sifati tarjima sifatiga tenglashtirilmasligi kerak. Yaxshi tarjima intuitiv ravishda yaratilishi, biroq zaif dalillanishi mumkin; aksincha, mukammal bo‘lmagan tarjima xatosini aniq tahlil qilgan sharh rivojlangan refleksiv kompetensiyani ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli taklif etilgan baholash tizimida yakuniy matn va refleksiv izoh alohida ballanadi.

Raqamli va generativ vositalardan foydalanish modelning dolzarbligini oshiradi. Bunday tizimlar qisqa vaqt ichida ko‘plab variantlarni taklif qilishi mumkin, ammo ular qaysi variant muallif ovozi, tarixiy registr yoki matniy izchillikka ko‘proq mosligini mustaqil ravishda kafolatlamaydi. R.Munyos Martin va K.Olayya-Soler tarjima faoliyatini faqat muammo yechish bilan cheklash yetarli emasligini, unda muvofiqlashtirish, monitoring va kontekstual boshqaruv ham mavjudligini ko‘rsatadi [Muñoz Martín & Olalla-Soler, 2022]. Shuning uchun raqamli natija tayyor javob

emas, tekshiriladigan nomzod variant sifatida qabul qilinadi.

Pedagogik tatbiq nuqtaiy nazaridan model bosqichli murakkablashtirishni talab qiladi. Boshlang‘ich bosqichda talaba faqat kontekst, yetakchi funksiya va ikki variantni qiyoslashi mumkin. Keyingi bosqichlarda pragmatik oqibat, kompensatsiya, matniy izchillik va tarjima topshirig‘i qo‘shiladi. D.Kelli kompetensiyaga yo‘naltirilgan dasturda topshiriqlarni bosqichma-bosqich tashkil etish va baholash mezonlarini oldindan ochiq berishni tavsiya qiladi [Kelly, 2005]. Bu yondashuv kognitiv yukni kamaytiradi va sharhni formal hisobotga aylanib qolishidan saqlaydi.

Modelning amaliy samaradorligini keyingi tadqiqotda nazorat va tajriba guruhlari yordamida tekshirish mumkin. O‘lchovlar tarjima sifati, muqobil variantlar soni, xatoni aniqlash aniqligi, tahrir chuqurligi va yozma asoslashning dalillilik darajasini qamrab olishi lozim. D.Syu va A.D.V. Gyunye o‘zini o‘zi boshqarish tarjima kompetensiyasining muhim prediktori ekanini ko‘rsatadi [Xu & Guénier, 2025]; N.Altuvayresh esa metakognitiv savollar talabalarni mahalliy muammolardan umumiy sifat monitoringiga yo‘naltirishini qayd etadi [Altuwairesh, 2024]. Shu asosda funksional karta o‘zini o‘zi boshqarishning aniq instrumenti sifatida sinovdan o‘tkazilishi mumkin.

Tadqiqotning cheklovi korpus hajmi va til juftliklarining torligidir. Sakkiz holat modelning ishlash mexanizmini ko‘rsatadi, biroq mezonlarning statistik barqarorligini isbotlamaydi. Bundan tashqari, taklif qilingan muqobil tarjimalar ekspert tahliliga asoslangan va real o‘quvchilar qabulida sinovdan o‘tkazilmagan. Kelgusida turli janrlar, tarjimon tajribasi darajalari va o‘quvchi guruhlari bo‘yicha ma’lumot to‘plash zarur.

Muqobil variantlarni tasniflashda texnika nomining o‘zi yetarli emas: yechimning matndagi funksional natijasi tekshirilishi kerak. P.Zabalbeaskoa tarjima yechimlarini mahsulot darajasida tavsiflash va ularni strategik maqsaddan farqlash zarurligini ko‘rsatadi [Zabalbeascoa, 2000].

XULOSA

Tadqiqot maqsadi badiiy tarjimada variant tanlashni umumiy taassurot yoki shakliy yaqinlik bilan emas, tekshiriladigan funksional mezonlar orqali asoslash imkoniyatini aniqlashdan iborat edi. Sakkizta holat bo‘yicha o‘tkazilgan tahlil gipotezaning ushbu korpus doirasida asosli ekanini ko‘rsatdi: variantning maqbulligi yetakchi funksiyaning saqlanishi, ikkilamchi tafovutlarning nazorat qilinishi, zarur yo‘qotishning kompensatsiya qilinishi va yechimning butun matn strategiyasiga mosligi bilan belgilanadi. Shakliy o‘xshashlik bu baholashning faqat bir qismi bo‘lib, mustaqil va yakuniy mezon vazifasini bajara olmaydi.

Tahlil qilingan misollarda funksiyalar o‘rtasidagi munosabat bir xil bo‘lmadi. Ajam va charlar kabi madaniy nomlarni saqlash tarixiy hamda milliy belgini kuchaytirdi, biroq izoh bo‘lmasa, o‘quvchi uchun semantik bo‘shliq qoldirdi. So‘ri, patir va somsa birliklarini umumlashtirish matnni ravonlashtirdi, lekin mahalliy makon va maishiy tajribaning ayrim belgilarini susaytirdi. Qiyosiy parallelizm, tuyoq sinekdoxasi va salla bilan bog‘liq imo-ishora misollari esa referensial aniqlikning

o‘zi obraz, personaj ovozi va pragmatik bosimni saqlash uchun yetarli emasligini ko‘rsatdi. Demak, bir texnika turli kontekstlarda turlicha natija beradi; strategiyaning nomi emas, uning matndagi funksional oqibati baholanishi kerak.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi tarjima sifati va tarjima qarorining asoslanganlik darajasini o‘zaro bog‘liq, ammo aynan bir xil bo‘lmagan ikki tahlil obyekti sifatida operatsion ajratishdadir. Shu maqsadda kontekstni tiklash, funksiyalarni aniqlash va ustuvorlashtirish, muqobil variantlar yaratish, yutuq, yo‘qotish va xatarlarni qiyoslash, tanlovni dalillash hamda yechimni matn miqyosida tekshirishdan iborat yetti amalli model ishlab chiqildi. Model yangi tarjima texnikasini e’lon qilmaydi; uning vazifasi mavjud tarjima yechimlarini qaysi maqsad va o‘quvchi uchun asosli deb hisoblash mumkinligini ochiq mezonlar asosida ko‘rsatishdir.

Pedagogik nuqtayi nazardan, yakuniy tarjima bilan yozma refleksiv sharhni alohida baholash maqsadga muvofiq. Tarjima matni semantik, pragmatik, uslubiy va madaniy natija sifatida tekshiriladi, sharh esa talabaning muammoni aniqlashi, muqobil variantlarni qiyoslashi, manbadan foydalanishi va tahrir qarorini tushuntirishi haqida dalil beradi. Taklif etilgan 100 ballik karta o‘qituvchiga umumiy “to‘g‘ri” yoki “noto‘g‘ri” hukmi o‘rniga qaysi bosqich yetarli bajarilmaganini ko‘rsatish imkonini beradi. Biroq baholovchilar o‘rtasidagi muvofiqlik va kartaning o‘quv natijalariga ta’siri hali tajriba orqali tekshirilmagan.

Elektron lug‘atlar, parallel korpuslar va generativ tizimlar muqobil variantlarni tez ko‘paytirishi mumkin, ammo funksional tanlov mas’uliyatini o‘z zimmasiga olmaydi. Shu sababli raqamli vosita bergan har bir variant tayyor javob sifatida emas, manba matni, janr me’yori, ishonchli dalil va mo‘ljallangan o‘quvchi nuqtayi nazaridan tekshiriladigan gipoteza sifatida ko‘rilishi lozim. Bunday tartib raqamli yordamdan foydalanishni rad etmaydi, balki uning natijasini tarjimonning tahliliy nazorati va tahrir mas’uliyatiga bo‘ysundiradi.

Natijalarni talqin qilishda tadqiqot cheklovlari hisobga olinishi kerak. Korpus sakkizta sifat tahlili holatidan iborat, til va janr qamrovi tor, muqobil variantlar esa ekspert tahliliga asoslangan. Shu bois maqola modelning pedagogik samaradorligi yoki statistik barqarorligini isbotlamaydi. Keyingi bosqichda nazorat va tajriba guruhlari ishtirokidagi tadqiqot o‘tkazilib, dastlabki va yakuniy tarjimalar, tahrir chuqurligi, xatoni aniqlash aniqligi, yozma asoslash sifati hamda baholovchilar o‘rtasidagi muvofiqlik qiyoslanishi lozim. Turli janrlar va tayyorgarlik darajalaridagi natijalar modelning qaysi qismlari barqaror, qaysilari esa vaziyatga moslashtirilishi kerakligini aniqlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev, Sh.M. (2021-yil 6-may). Chet tillarini o‘qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig‘ilishi. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti’*da. https://president.uz/oz/lists/view/4327.
2. Altuwairesh, N. (2024). Using metacognitive questionnaires to develop translator trainees’ strategic sub-competence: A case study. *International Journal of English Linguistics, 14*(5), 65–77.
3. Angelone, E. (2010). Uncertainty, uncertainty management and metacognitive problem solving in the translation task. In G.M. Shreve & E.Angelone (Eds.), *Translation and*

Cognition (pp. 17–40). Amsterdam: John Benjamins.
4. Baker, M. (2018). *In other words: A coursebook on translation* (3rd ed.). London: Routledge.
5. Ermakova, C. (Trans.). (2018). *Days gone by* (by A.Qadiri). Paris: Nouveau Monde Editions.
6. Fort, C. (Trans.). (2019). *Night and day* (by Cholpon). Boston: Academic Studies Press.
7. Göpferich, S. (2009). Towards a model of translation competence and its acquisition: The longitudinal study TransComp. In S.Göpferich, A.L. Jakobsen, & I.M. Mees (Eds.), *Behind the Mind: Methods, Models and Results in Translation Process Research* (pp. 11–37). Copenhagen: Samfundslitteratur.
8. Hatim, B., & Mason, I. (1997). *The translator as communicator*. London: Routledge.
9. House, J. (2015). *Translation quality assessment: Past and present*. London: Routledge.
10. Kelly, D. (2005). *A handbook for translator trainers*. Manchester: St. Jerome.
11. Kiraly, D. (2000). *A social constructivist approach to translator education*. Manchester: St. Jerome.
12. Colina, S. (2015). *Fundamentals of translation*. Cambridge: Cambridge University Press.
13. Costa, C.B., & Lourenço da Silva, I.A. (2023). Annotating translation as a meaningful metacognition-oriented practice in the translation classroom. *Revista de Letras, 1*(42), 314–328.
14. Levý, J. (1967). Translation as a decision process. In *To honor Roman Jakobson* (Vol. 2, pp. 1171–1182). The Hague: Mouton.
15. Maksudov, U. (2026). *Mejyazykavaya asimmetriya v khudozhestvennom perevode*. Tashkent: UzGUMYA.
16. Massey, G., & Ehrensberger-Dow, M. (2011). Commenting on translation: Implications for translator training. *The Journal of Specialised Translation, 16*, 26–41.
17. Munday, J., Ramos Pinto, S., & Blakesley, J. (2022). *Introducing translation studies: Theories and applications* (5th ed.). London: Routledge.
18. Muñoz Martín, R., & Olalla-Soler, C. (2022). Translating is not (only) problem solving. *The Journal of Specialised Translation, 38*, 3–31.
19. Musayev, Q. (2005). *Tarjima nazariyasi asoslari*. Toshkent: "Fan" nashriyoti.
20. Nord, C. (2018). *Translating as a purposeful activity: Functionalist approaches explained* (2nd ed.). London: Routledge.
21. PACTE Group. (2005). Investigating translation competence: Conceptual and methodological issues. *Meta, 50*(2), 609–619.
22. Pym, A., & Hu, K. (2025). Trade-offs in translation effects: Illustrations and methodological concerns. *Target, 37*(1), 117–138.
23. Qodiriy, A. (2019). *O'tkan kunlar*. Toshkent: Navro'z.
24. Reese, M. (Trans.). (2018). *Bygone days* (by A.Qodiriy). Nashville: Muloqot Cultural Engagement Program.
25. Salomov, G'. (1983). *Tarjima nazariyasi asoslari*. Toshkent: O'qituvchi.
26. Shreve, G.M. (2006). The deliberate practice: Translation and expertise. *Journal of Translation Studies, 9*(1), 27–42.
27. To'xtasinov, I., Mo'minov, O., & Hamidov, A. (Trans.). (2017). *The days gone by* (by A.Qodiriy). Toshkent: Mashhur-Press.
28. Venuti, L. (2018). *The translator's invisibility: A history* (3rd ed.). London: Routledge.
29. Xiao, L., & Zeng, J. (2023). An empirical study on the improvement of students' strategic competence through translation project teaching. *International Education Studies, 16*(6), 123–132.
30. Xu, D., & Guénier, A.D.W. (2025). Self-regulation as a stronger predictor than motivation of translation competence: A mixed-methods study of undergraduate translation students. *Frontiers in Psychology, 16*, Article 1582455.
31. Zabalbeascoa, P. (2000). From techniques to types of solutions. In A.Beeby, D.Ensinger, & M.Presas (Eds.), *Investigating translation: Selected papers from the 4th International*

Congress on Translation, Barcelona, 1998 (pp. 117–127). Amsterdam: John Benjamins.
32. G‘afurov, I., Mo‘minov, O., & Qambarov, N. (2012). *Tarjima nazariyasi*. Toshkent: Tafakkur Bo‘stoni.
33. Cho‘lpon. (2019). *Kecha va kunduz*. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

REFERENCES

1. Mirziyoyev, Sh.M. (May 6, 2021). Measures to improve the foreign language teaching system: Videoconference meeting. In *Official website of the President of the Republic of Uzbekistan*. https://president.uz/oz/lists/view/4327.
2. Altuwairesh, N. (2024). Using metacognitive questionnaires to develop translator trainees' strategic sub-competence: A case study. *International Journal of English Linguistics, 14*(5), 65–77.
3. Angelone, E. (2010). Uncertainty, uncertainty management and metacognitive problem solving in the translation task. In G.M. Shreve & E.Angelone (Eds.), *Translation and Cognition* (pp. 17–40). Amsterdam: John Benjamins.
4. Baker, M. (2018). *In other words: A coursebook on translation* (3rd ed.). London: Routledge.
5. Cholpon. (2019). *Night and day*. Tashkent: Gafur Ghulam Publishing and Printing House.
6. Colina, S. (2015). *Fundamentals of translation*. Cambridge: Cambridge University Press.
7. Costa, C.B., & Lourenço da Silva, I.A. (2023). Annotating translation as a meaningful metacognition-oriented practice in the translation classroom. *Journal of Letters, 1*(42), 314–328.
8. Ermakova, C. (Trans.). (2018). *Days gone by* (by A.Qadiri). Paris: New World Editions.
9. Fort, C. (Trans.). (2019). *Night and day* (by Cholpon). Boston: Academic Studies Press.
10. Gafurov, I., Mominov, O., & Qambarov, N. (2012). *Translation theory*. Tashkent: Garden of Thought Publishing House.
11. Göpferich, S. (2009). Towards a model of translation competence and its acquisition: The longitudinal study TransComp. In S.Göpferich, A.L. Jakobsen, & I.M. Mees (Eds.), *Behind the Mind: Methods, Models and Results in Translation Process Research* (pp. 11–37). Copenhagen: Samfundslitteratur.
12. Hatim, B., & Mason, I. (1997). *The translator as communicator*. London: Routledge.
13. House, J. (2015). *Translation quality assessment: Past and present*. London: Routledge.
14. Kelly, D. (2005). *A handbook for translator trainers*. Manchester: St. Jerome.
15. Kiraly, D. (2000). *A social constructivist approach to translator education*. Manchester: St. Jerome.
16. Levý, J. (1967). Translation as a decision process. In *To honor Roman Jakobson* (Vol. 2, pp. 1171–1182). The Hague: Mouton.
17. Maksudov, U. (2026). *Interlingual asymmetry in literary translation*. Tashkent: UzSWLU.
18. Massey, G., & Ehrensberger-Dow, M. (2011). Commenting on translation: Implications for translator training. *The Journal of Specialised Translation, 16*, 26–41.
19. Munday, J., Ramos Pinto, S., & Blakesley, J. (2022). *Introducing translation studies: Theories and applications* (5th ed.). London: Routledge.
20. Muñoz Martín, R., & Olalla-Soler, C. (2022). Translating is not (only) problem solving. *The Journal of Specialised Translation, 38*, 3–31.
21. Musayev, Q. (2005). *Fundamentals of translation theory*. Tashkent: Science Publishing House.
22. Nord, C. (2018). *Translating as a purposeful activity: Functionalist approaches explained* (2nd ed.). London: Routledge.
23. PACTE Group. (2005). Investigating translation competence: Conceptual and methodological issues. *Meta, 50*(2), 609–619.
24. Pym, A., & Hu, K. (2025). Trade-offs in translation effects: Illustrations and methodological concerns. *Target, 37*(1), 117–138.

25. Qodiriy, A. (2019). *Bygone days*. Tashkent: Spring Publishing House.
26. Reese, M. (Trans.). (2018). *Bygone days (by A.Qodiriy)*. Nashville: Conversation Cultural Engagement Program.
27. Salomov, G. (1983). *Fundamentals of translation theory*. Tashkent: Teacher Publishing House.
28. Shreve, G.M. (2006). The deliberate practice: Translation and expertise. *Journal of Translation Studies, 9*(1), 27–42.
29. Tukhtasinov, I., Mominov, O., & Hamidov, A. (Trans.). (2017). *The days gone by* (by A.Qodiriy). Tashkent: Famous Press Publishing House.
30. Venuti, L. (2018). *The translator's invisibility: A history* (3rd ed.). London: Routledge.
31. Xiao, L., & Zeng, J. (2023). An empirical study on the improvement of students' strategic competence through translation project teaching. *International Education Studies, 16*(6), 123–132.
32. Xu, D., & Guénier, A.D.W. (2025). Self-regulation as a stronger predictor than motivation of translation competence: A mixed-methods study of undergraduate translation students. *Frontiers in Psychology, 16*, Article 1582455.
33. Zabalbeascoa, P. (2000). From techniques to types of solutions. In A.Beeby, D.Ensinger, & M.Presas (Eds.), *Investigating Translation: Selected papers from the 4th International Congress on Translation, Barcelona, 1998* (pp. 117–127). Amsterdam: John Benjamins.